TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

UBAYDULLAYEV ABROR QUTPILLA O‘G‘LI

ISLOM HUQUQIDA MOLIYA INSTITUTINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI: TARIXIY-HUQUQIY TADQIQOT

12.00.01. – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 297 (043.5) (575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

UBAYDULLAYEV ABROR QUTPILLA O‘G‘LI

ISLOM HUQUQIDA MOLIYA INSTITUTINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI: TARIXIY-HUQUQIY TADQIQOT

12.00.01. – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Yu1891 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus, (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Raxmanov Abdumuxtor Rejjabbayevich** yuridik fanlar nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Tulteyev Ilyas Tavasovich** yuridik fanlar doktori, professor
	Xakimov G'ulomjon Turg'unpo'latovich yuridik fanlar nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 30-sentabr soat 9:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1493-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 17- sentabrda tarqatildi.

(2026-yil 17- sentabrdagi 9-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.M. Xashimhonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

X.U. Turdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.R. Bekov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda har o‘n yilliklarda sodir bo‘layotgan iqtisodiy inqirozlar jahon iqtisodiyoti uchun moliyaviy aktivlar diversifikatsiyasi nihoyatda muhim ekanini ko‘rsatmoqda. “Islom moliyasi rivojlanishi – 2025” hisobotida 2024-yil islom moliya aktivlarining umumiy hajmi 5,98 trillion AQSH dollarini tashkil etdi. Agar o‘sish hozirgidek davom etsa, 2029-yilga borib 9,7 trillion AQSH dollariga yetishi bashorat qilinmoqda. Ushbu o‘sishni shakllantiruvchi asosiy tendensiyalar qatorida transchegaraviy aloqa, tartibga solishni takomillashtirish va hukumatlarning strategik tashabbuslari qayd etilgan. Xalqaro moliya institutlarini qo‘llab-quvvatlashda Malayziya, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) yetakchilik qilmoqda, Malayziya va BAA beshta asosiy indikatorning har biri bo‘yicha kuchli beshlikka kirgan[1]. Shunday sharoitda islom moliyasiga e’tibor oshmoqda va uning huquqiy asoslarini yaratish, takomillashtirish va nazariy-huquqiy jihatlarini tadqiq etish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

Jahonda islom moliya institutlarining shakllanishi va rivojlanishiga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, islom huquqida moliyaviy munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi asosiy manbalar va tamoyillar, islom moliya huquqi sohasi va uning tarkibiy qismlari, hozirgi zamonda islom moliya huquqining o‘ziga xos xususiyatlari, XXI asrda islom huquqi moliya institutining huquqiy asoslari, islom huquqi moliya institutining zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari, ortiqcha mablag‘larni rasmiy iqtisodiyotga jalb etishda alternativ iqtisodiy mexanizm sifatida islom moliyasining huquqiy imkoniyatlari kabi bir qator yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar o‘tkazilmoqda.

Respublikamizda xalqaro islom moliyasi institutlari bilan hamkorlikda huquqiy asoslarni yaratish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda, 2024-yil 27-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 3536-sonli qarori bilan “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida”gi nizom[2] tasdiqlandi. Ushbu Nizomga ko‘ra, mikromoliya tashkilotlari *salam, muzoraba, mushoraka, murobaha, istisna va ijara* kabi mahsulotlar orqali mijozlarni moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Biroq Qozog‘iston[3], Qirg‘iziston[4] hamda Tojikistonda islom moliyasi bo‘yicha barqaror normativ-huquqiy baza shakllantirilgan bir vaqtda, O‘zbekistonda sohani tartibga soluvchi huquqiy asoslarni ishlab chiqish va takomillashtirish zaruratining mavjudligi, aholi qo‘lidagi, mazkur sohada davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalarning deklarativ xususiyatga egaligi va ularni amalga oshirishning tashkiliy-

[1] ICD – LSEG Islamic Finance Development Report 2025. www.lseg.com/content/dam/data-analytics/en_us/documents/reports/lseg-islamic-finance-development-indicator-2025.pdf

[2] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 19-iyuldagi “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 23/4-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/7036330

[3] Закон Республики Казахстан «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Казахстан по вопросам организации и деятельности исламских банков и организации исламского финансирования» от 12 февраля 2009 года № 133-IV.

[4] О Национальном банке Кыргызской Республики, банках и банковской деятельности: Закон Кыргызской Республики от 12 августа 2022 года № 93 // Централизованный банк данных правовой информации Кыргызской Республики. URL: http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/112431 (murojaat qilingan sana: 24.05.2026).

huquqiy mexanizmlari yetarli emasligi, islom moliyasini tartibga solishi lozim boʻlgan me'yoriy hujjatlarda boʻshliqlarning mavjudligi mazkur masalani ilmiy jihatdan oʻrganishni taqozo qilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati toʻgʻrisida"gi OʻRQ–765-son (2022) Qonuni, "Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida"gi OʻRQ–580-son (2019) Qonuni, "Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisida"gi OʻRQ–582-son (2019) Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 19-iyuldagi 23/4-son qaroriga ilova – "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni koʻrsatish tartibi toʻgʻrisida"gi Nizom hamda sohani tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan va istiqbolda koʻrsatilishi lozim boʻlgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari" ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Oʻzbekiston yuridik fanida tadqiqot ishi mavzusi bilan bogʻliq ayrim nazariy va amaliy muammolar milliy olimlar, jumladan, A. Saidov, N. Yusupova, A. Raxmanov, H. Yunusov, X. Muhamedov, K. Musayeva, A. Juzjoniy, M. Qosimov, S. Yusupov, M. Yoʻldoshev, Y. Tursunov, A. Normuratov, Sh. Shoraxmetov va boshqa olimlar ilmiy ishlarida tadqiq etilgan[1].

Mamlakatimiz islom huquqida moliya institutining muayyan davrlarga va asarlarga oid tarixiy-huquqiy va nazariy-huquqiy tahlili "Majallayi ahkomi adliya" misolida Sh. Avazovaning nomzodlik dissertatsiyasida (2008), Movarounnahrlik islom huquqi olimlari, jumladan, Margʻinoniyning "Hidoya" asarini tadqiq etish misolida S. Isxakovning nomzodlik dissertatsiyasida (2002), Saraxsiyning "Al-Mabsut" asaridagi moliyaviy munosabatlarni tadqiq etish doirasida M. Qosimovning yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori dissertatsiyasida (2021) oʻrganilgan, biroq islom huquqida moliya institutining shakllanishi va rivojlanishi mavzusi shu vaqtga qadar yaxlit tadqiqot ishi sifatida kompleks oʻrganilmagan[2].

MDH davlatlarida ushbu mavzuga doir masalalar V. Lazarev, G. Kerimov, L. Syukiyaynen, R. Bekkin, E. Baydaulet, M. Marchenko, F. Reshetov, A. Cherdansev, L. Vandenberg, G.E. fon Gryunebaum, Y. Reshetov, N. Jdanov, N. Tornau, M. Sadagbar, R. Gazizova, M. Kalimullina, A. Solodov, Y. Ledakova, N. Kozirinlar tomonidan, boshqa xorijiy mamlakatlarda mavzuga oid masalalar H. Kamali, M. Taqiy Usmoniy, K. Lyuis, M. Abdul Rauf, A. Lutfiy, M. Siddiqiy, J. Esposito, H. Kennedi, G.S. Hojson, K. Hitti, E. Fogel, M. Hadduriy, M. Iqbol, A. Khan, B. Vael Hallaq, J. Nasir, U. Chapra, A. Maududi, Ch. Tripp, Al-Ashker, M. Al-Jamal, D. Foster, G. Erkanbrak, Z. Hasanlar tomonidan tadqiq etilgan[3].

---

[1] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatida berilgan.
[2] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatida berilgan.
[3] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatida berilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib, ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi islom huquqida moliya institutining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini kompleks tadqiq etish orqali O'zbekistonda islom moliya huquqining nazariy asoslarini mustahkamlash va huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

islom huquqida moliya institutining tushunchalari tavsifini aniqlash;

islom huquqida moliyaviy munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi asosiy manbalar va tamoyillarni tahlil qilish;

islom moliya huquqi instituti va uning tarkibiy qismlarini tadqiq etish;

islom moliya institutini huquqiy tartibga solishning vujudga kelishini tahlil qilish;

Arab xalifaligida islom moliya qonunchiligining rivojlanish jarayonini ochib berish;

islom moliya huquqining shakllanishida movarounnahrlik olimlarning qo'shgan hissalarini tahlil qilish;

XIX–XX asrlarda islom huquqida moliya institutining tadrijiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan siyosiy-huquqiy omillarni aniqlash;

hozirgi zamonda islom moliya huquqining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

XXI asrda islom moliyasini huquqiy tartibga solish modellari va xorijiy davlatlar amaliyotini o'rganish;

islom huquqi moliya institutining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish istiqbollarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti islom moliyasiga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish jarayonida turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan hamda zamonaviy bosqichda xalqaro standartlar ta'sirida shakllanayotgan ijtimoiy munosabatlar tizimidir.

Tadqiqotning predmeti islom huquqining moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy asoslari, tarixiy rivojlanish bosqichlari, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, analiz va sintez, statistik ma'lumotlar tahlili va huquqiy prognoz qilish kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bank-moliya qonunchiligida investitsiyaviy omonatlar sifatida foydani bo'lishish sharti bilan jalb etilgan pul mablag'larini omonat (depozit)ning klassik ta'rifidan istisno etish lozimligi hamda an'anaviy bank omonatiga qo'yiladigan huquqiy talablar islom moliyasi operatsiyalariga tatbiq etilmasligi asoslangan;

islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarga bevosita savdo faoliyati bilan shug'ullanish hamda yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi ulushlarini (aksiyalarini) sotib olishga oid cheklovlarni tatbiq etmaslik zarurligi asoslab berilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvining vakolatlari qatoriga islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalarni berish, qayta rasmiylashtirish va chaqirib olishga doir eksklyuziv huquqlarni kiritish hamda regulyatorning ushbu sektordagi maqomi va huquqiy vakolatlarini belgilash zarurligi asoslangan;

fuqarolik qonunchiligida bank omonati shartnomasining huquqiy ta’rifini islom moliyasi tamoyillari bilan muvofiqlashtirish hamda omonat bo‘yicha daromad olishning foizlardan tashqari shakllarini nazarda tutuvchi qoida bilan takomillashtirish zarurligi asoslangan;

bank omonatlariga to‘lanadigan daromadlarni nafaqat foizlar, balki boshqa daromad va foizsiz omonat mexanizmlari bilan amalga oshirilishi mumkinligini fuqarolik qonunchiligida belgilash zarurligi asoslangan;

islom moliya huquqining o‘ziga xos tamoyillari, sherikchilikka asoslangan bitimlar va investitsion shartnomalarning konseptual-huquqiy tabiati tizimlashtirilgan hamda ularning qiyosiy-huquqiy tahlili oliy yuridik ta’lim tizimida tizimli nazariy bilimlarni shakllantirishning ilmiy asosi sifatida xizmat qilishi asoslab berilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Islom moliya huquqi”, “moliya huquqi” tushunchalariga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan hamda islom huquqida moliya institutining moliya-bank tizimidagi o‘ziga xos konseptual-huquqiy tamoyillari yoritib berilgan;

islom moliyaviy munosabatlarini tartibga soluvchi zamonaviy qoidalar, xalqaro islom moliyasi standartlarining yuridik tabiati ochib berilgan;

islom moliyasini joriy etishning monistik, integratsion va dualistik modellari, ularning o‘ziga xos konseptual-huquqiy belgilari hamda milliy bank tizimida dualistik modelni qo‘llashning an’anaviy tizim bilan o‘zaro muvofiqlik (nisbat) mezonlari ko‘rsatib berilgan;

oliy yuridik ta’lim tizimida Islom moliya huquqi fanini mustaqil o‘quv moduli sifatida joriy etish zarurligi huquqiy jihatdan asoslab berilgan hamda ushbu soha bo‘yicha tegishli fan dasturlari va sillabuslarni ishlab chiqishda tadqiqot natijalaridan foydalanish imkoniyatlari aniqlangan;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining islomiy bank faoliyati sohasidagi litsenziyalash va tartibga solish vakolatlarini mustahkamlash bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunga qo‘shimchalar kiritish zarurligi asoslangan;

bank-moliya qonunchiligida investitsiyaviy omonatlarni omonat (depozit)ning an’anaviy ta’rifidan istisno qilish hamda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar asoslangan;

islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarga nisbatan bevosita savdo faoliyati va ustav fondlaridagi ulushlarni sotib olishga oid cheklovlarni tatbiq etmaslik yuzasidan bank qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining omonat shartnomasiga oid normalari doirasida omonatga to‘lanadigan daromadlar tarkibiga foyda ulushini ham kiritish va foizsiz omonat mexanizmlarini huquqiy jihatdan tan olish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish takliflari ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalarining o'zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingani, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosa va takliflar O'zbekiston Respublikasida islom moliyasining huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish hamda Davlat va huquq nazariyasi, Davlat va huquq tarixi, Siyosiy-huquqiy ta'limotlar tarixi fanlarini ilmiy-nazariy boyitish bilan belgilanadi.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish asnosida islom huquqiy ta'limoti shakllanishidan to bugungi kunga qadar islomiy-moliyaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishdagi fundamental manbalar, siyosiy-huquqiy jarayonlar va ularning soha rivojiga ta'siri, ilmiy qarashlar va xulosalar, tarixiy rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq masalalar Davlat va huquq nazariyasi, Davlat va huquq tarixi, Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi hamda Islom huquqi fanlari nuqtayi nazaridan monografik darajada tadqiq etildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekistonda islom moliyasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqot xulosalaridan olingan natijalar asosida:

bank-moliya qonunchiligida investitsiyaviy omonatlar sifatida foydani bo'lishish sharti bilan jalb etilgan pul mablag'larini omonat (depozit) ta'rifidan istisno etishga oid taklifi 2026-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1126-son Qonuni 3-moddasi 4-bandi ("Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasi birinchi qismi ikkinchi xatboshisi)ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2026-yil 20-maydagi 3/dn-74-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif islom moliyasi operatsiyalari asosida jalb etilgan investitsiyaviy omonatlarga bank an'anaviy omonatiga qo'yiladigan talablar tatbiq etilmasligiga xizmat qilgan;

bevosita savdo faoliyatini amalga oshirishga hamda yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi ulushlarini (aksiyalarni) olishga oid cheklovlarning islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarga nisbatan tatbiq etilmasligiga oid taklifi 2026-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1126-son Qonuni 3-moddasi 5-bandi ("Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasi o'ninchi qismi)ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2026-yil 20-maydagi 3/dn-74-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi moliyaviy tashkilotlarda islom moliyasi qoida va tamoyillari asosida faoliyat yuritishni ta'minlashga xizmat qilgan;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining vakolatlari qatoriga islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalarni berish, qayta rasmiylashtirish va chaqirib olish to'g'risida qarorlar qabul qilishni kiritishga oid taklifdan 2026-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1126-sonli Qonuni 1-moddasi 1-bandi ("O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasi o'n ikkinchi xatboshisi)ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2026-yil 20-maydagi 3/dn-74-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining islomiy bank faoliyatini tashkil etishdagi maqomi va vakolatlari mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

bank omonati shartnomasi ta'rifiga omonat summasini foizlar, shuningdek, boshqa daromadlar bilan yoki ularsiz qaytarish imkoniyatini nazarda tutuvchi qoidani kiritishga oid taklifi 2026-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1126-sonli Qonuni 2-moddasi 2-bandi (Fuqarolik kodeksining 759-moddasi birinchi qismi)ni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2026-yil 20-maydagi №3/dn-74-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif bank omonati shartnomasida omonatni foizlar bilan yoki ularsiz qaytarish imkoniyatini huquqiy jihatdan ta'minlashga xizmat qilgan;

omonatga to'lanadigan daromadlar tarkibiga foizlar bilan bir qatorda boshqa daromadlarni ham kiritish hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 763-moddasi nomini "Omonatga to'lanadigan foizlar va (yoki) boshqa daromadlar" deb o'zgartirishga oid taklifi 2026-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1126-sonli Qonuni 2-moddasi 4-bandi (Fuqarolik kodeksining 763-moddasi ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi xatboshisi)ni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2026-yil 20-maydagi 3/dn-74-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif omonatga oid munosabatlarni nafaqat foizli bank modeli bilan amalga oshirish, balki islomiy moliya tamoyillariga asoslangan foizsiz omonat mexanizmlarini huquqiy jihatdan tan olish va qo'llash imkoniyatini ta'minlashga xizmat qilgan;

islom moliyasining huquqiy tabiatini tavsiflashga oid ilmiy natijalardan Toshkent davlat yuridik universitetida "Islom moliya huquqi" o'quv modulining fan dasturini shakllantirishda, jumladan, uning islom moliya huquqi tamoyillari, sherikchilik va investitsion shartnomalar hamda qiyosiy-huquqiy tahlilga oid qismlarini shakllantirishda foydalanilgan (Toshkent davlat yuridik universitetining 2025-yil 4-avgustdagi dalolatnomasi). Mazkur natijalarning tatbiq etilishi talabalarda soha bo'yicha tizimli nazariy-huquqiy bilimlarni shakllantirishga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjuman, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari, davra suhbatlari va seminarlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola (shundan 3 ta maqola xorijiy jurnalda) va to'plamlar tarkibida 4 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, o'n paragrafdan iborat uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Islom huquqida moliya institutining ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlanib, islom huquqida moliyaviy munosabatlarning fundamental nazariy-huquqiy asoslari, islom moliya huquqi tushunchasi va yuridik tabiati, moliyaviy munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi asosiy manbalar, umumiy (fiqhiy) qoidalar mazmuni va mohiyati, shuningdek, islom moliya huquqi institutsional tarmoqlarga ajratilgan holda umumiy tahlil qilingan.

Dissertant **islom huquqida moliya instituti** tushunchasini ham tarixiy, ham huquqiy jihatdan tahlil qilish, uning islom moliya huquqidagi o'rni va mohiyatini belgilab berish maqsadida olib borilgan tadqiqotlarda (X. Muhamedov, A.R. Raxmanov, S. Yusupov, M. Yo'ldoshev, Y. Tursunov, A. Normuratov, Sh. Shoraxmetov, K.K. Musayeva) ilgari surilgan nuqtayi nazarlarni qiyosiy tahlil qilgan holda, ushbu institut islomiy-moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy tizimning asosiy elementi sifatida shakllanganligi to'g'risidagi xulosaga kelgan. Shu nuqtayi nazardan, huquq manbalarining tasnifi va tarixiy rivojlanishidan kelib chiqib, ularning shakllanish manbalari, huquqiy tabiati hamda zamonaviy huquq tizimlaridagi o'rnini anglagan holda ta'rif berilishi maqsadga muvofiq degan xulosaga kelgan.

Tadqiqotchining fikricha, islom huquqida moliya instituti – bu islom huquqshunosligi (shariat) asosida vujudga kelgan, ijtimoiy-iqtisodiy adolatni ta'minlashga asoslangan, muayyan moliyaviy-huquqiy funksiyani o'zida aks ettirgan, tarixiy taraqqiyotning muayyan davrida normativ-huquqiy va institutsional jihatdan takomillashib, hozirgi davrda islom moliya huquqi sifatida namoyon bo'layotgan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimidir.

Shu bilan birga, tadqiqotda islom moliya huquqining o'ziga xos xususiyatlarini yanada aniqroq aks ettirish maqsadida dastlab an'anaviy moliya huquqi tushunchasi, mohiyati bir qator olimlarning yondashuvlari (S. Yusupov, M. Yo'ldoshev, Y. Tursunov, A. Normuratov, V.G. Petrova, I.N. Barsist, A.N. Kozyrin) asosida tahlil qilingan va moliya huquqiga quyidagicha ta'rif berilgan:

Moliya huquqi – davlatning moliyaviy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi pozitiv xarakterdagi huquqiy normalar yig'indisi bo'lib, u ommaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishi va huquqiy tartibga solish doirasi ko'proq fiskal maqsadlarga qaratilgani bilan islom moliya huquqidan farqli hisoblanadi.

Shuningdek, "islom moliya huquqi" tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi shakllantirilgan:

Islom moliya huquqi – islom huquqiy tafakkurining tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan, Qur'oni karim, sunnat, ijmo va qiyos kabi shariat manbalariga, shuningdek, ratsional fikrlash (ijtihod) va islom huquqining umumiy tamoyillariga asoslangan, ommaviy-huquqiy va xususiy-huquqiy munosabatlar sintezidan iborat bo'lgan, moliyaviy jarayonlarni tartibga soluvchi mustaqil kompleks institut bo'lib, u iqtisodiy adolat, ijtimoiy barqarorlik va axloqiy tamoyillarga asoslangan fiskal, moliyaviy siyosatni amalga oshirishni maqsad qiladi.

Tadqiqotchi tomonidan islom moliya institutining huquqiy tabiatini ommaviy va xususiy huquq sintezi sifatida tavsiflovchi nazariy konsepsiya ilgari surilgan. Bunda soliq, jumladan, zakot majburiyati, baytulmol (g'azna) institutiga oid moliyaviy munosabatlar ommaviy-huquqiy tabiatga ega bo'lsa, muzoraba, mushoraka, murobaha kabi shartnomaviy institutlar xususiy-huquqiy asosga ega ekanligi tahlil qilingan. Ushbu ikki o'lchamlilik islom huquqi moliya institutining qiyosiy huquqshunoslik va huquq tizimlari o'rtasidagi o'zaro farqli jihatlarini anglashda alohida huquqiy kategoriya sifatida tadqiq qilish zaruriyatini asoslaydi.

Dissertant islom moliya huquqining huquqiy tabiati va tarixiy shakllanishidan kelib chiqib, unga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ko'rsatib o'tgan:

1) foizli moliyaviy amaliyotlarning taqiqlanganligi; 2) risk va foyda-zararlar o'zaro taqsimot asosida amalga oshirilishi; 3) noaniq taxminlarga asoslangan moliyaviy operatsiyalarga (g'arar) yo'l qo'yilmasligi; 4) taqiqlangan faoliyat turlari bilan shug'ullanish, iste'mol qilish, targ'ib qilishning mumkin emasligi; 5) shartnomalarning muqaddasligi.

Tadqiqotchining fikricha, islom huquqi moliya institutining manbalari uning o'ziga xosligining asosiy jihatini aks ettiradi. Islom moliya huquqi nafaqat huquqiy, balki, diniy-axloqiy xarakterga ega ekanligi, eng bosh manbalar hisoblanmish Qur'on va sunnatning barqaror va o'zgarmas qoidalardan iborat ekanligi sohaning statik xarakterini aks ettirsa, qiyos va ijmo kabi manbalari islom moliya huquqining moliyaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishdagi imkoniyatlari kengayishiga sabab bo'ldi. Islom huquqshunosligida norma ijodkorligining muhim usuli hisoblanadigan ijtihod institutining taraqqiy etishi va keyingi davrlarda islom huquqshunosligida umumiy (fiqhiy) qoidalarning ishlab chiqilishi islom moliyasining moliyaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda dinamik xarakterini ochib berdi.

Bundan tashqari, islom huquqshunosligining umumiy (fiqhiy) qoidalariga oid tadqiqotlarda (Sh. Avazova, A.Sh. Juzjoniy, N. Yusupova, L.R. Syukiyaynen) ilgari surilgan nuqtayi nazarlar tahlilidan kelib chiqqan holda, dissertant "islom huquqining umumiy (fiqhiy) qoidalari" tushunchasiga "Islom huquqining tarixiy shakllanishi davomida mustahkamlangan, shariatning asosiy manbalariga zid kelmaydigan, barcha huquq maktablarining ta'limotlarini o'ziga singdirgan, qisqa matnlardan iborat bo'lgan ayrim ishlarning umumiy hukmlari" – degan mualliflik ta'rifini bergan.

Tadqiqotchi tomonidan islom huquqshunosligining umumiy (fiqhiy) qoidalari ilmiy tavsifidan kelib chiqqan holda uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan: *"Umumiy (fiqhiy) qoidalar" bir muammo bo'yicha aniq hukm hisoblanmaydi, balki yuzlab masalalarga tatbiq etish mumkin bo'lgan islom tamoyillari hisoblanishi; umumiy qoidalarni ishlab chiqishdan maqsad islom huquqining normalarini yaxshiroq tushunish, ma'lum munosabatni tartibga solish uchun ko'plab qoidalar ichidan aniq hukmni aniqlab olish bo'lganligi; huquqiy manbalardan kelib chiqishi ya'ni ayrim fiqhiy qoidalar Qur'on va hadisdan, ayrimlari ijmo va aqliy istidlol (dalillash) asosida yuzaga kelishi.*

Shuningdek, dissertatsiyada umumiy qoidalarning o'ziga xos xususiyati beshta quyidagi ustuvor qoidalar zamiridan kelib chiqishi ta'kidlangan: *ishlar maqsadlarga ko'radir; aniq bo'lgan narsalar gumon bilan bekor qilinmaydi; mashaqqat yengillikni keltirib chiqaradi; zarar bartaraf etiladi; odat – huquq manbayi.*

Tadqiqotchining fikricha, islom moliya huquqi qoidalarining standartlashtirilishida islom huquqshunosligining umumiy (fiqhiy) qoidalari beqiyos ahamiyat kasb etadi va nazariy-huquqiy asoslar, jumladan, o'quv adabiyotlari yaratishda islom moliya huquqining manbalari qatorida umumiy (fiqhiy) qoidalarga ham urg'u berish nihoyatda muhim hisoblanadi.

Dissertant islom huquqida moliyaviy munosabatlarning institutsional tuzilmasini chuqurroq tushunish maqsadida sohani tarmoqlarga bo'lib tasniflab bergan. Tadqiqotchining fikricha, islom huquqining muomalatga oid munosabatlarini ularning moliyaviy xarakteridan kelib chiqqan holda quyidagi ikki asosiy tarmoqqa ajratish mumkin: 1) Islom moliya huquqi (Fiqh al-Māliyyah); 2) Islom meros huquqi (Fiqh al-Mawārith).

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Islom moliya huquqining shakllanishi"** deb nomlanib, unda islom moliya institutini huquqiy tartibga solishning vujudga kelishi va shakllanishi, islom huquqida moliya institutining shakllanishida movarounnahrlik faqihlarning o'rni hamda XIX-XX asrlarda islom huquqida moliya institutining tadrijiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan siyosiy-huquqiy omillarning vujudga kelishi tahlil qilingan.

II bobda amalga oshirilgan tarixiy-huquqiy tadqiqot islom huquqi moliya institutining rivojlanishini mualliflik asosida to'rt bosqichda davrlashtirish imkonini berdi: proto-institutsional shakllanish (VII asr); nasliy vorislik tizimiga ega sulolalar va fiqhiy mazhablar doirasida tizimli rivojlanish (VIII–XIII asrlar); G'arb huquqiy tizimlari ta'sirida klassik shakl inqirozi va islom huquqining moliya instituti transformatsiyasi (XIX–XX asrlar); islom moliya huquqining xalqaro standartlar asosida globallashuvi (XXI asr). Mazkur davrlashtirish tizimi islom moliya institutini statik emas, balki dinamik va evolyutsion huquqiy kategoriya sifatida tavsiflovchi metodologik asos bo'lib xizmat qiladi va ushbu bobda yuqoridagi to'rt davrning uchtasi tahlil qilinadi.

Tadqiqot tahlillaridan ma'lum bo'ladiki, islom huquqida moliyaviy munosabatlar dastlab tezlik bilan tartibga solinmagan hamda muayyan davrlar mobaynida murakkablashib borgan. Xususan, Muhammad payg'ambar (s.a.v.) davrlarida davlat boshqaruvida moliyaviy-huquqiy munosabatlar, jumladan, byudjet, soliq hamda valyuta bilan bog'liq jarayonlar asosan Madinada yo'lga qo'yila boshlandi. Jumladan, zakot Madinada hijriy ikkinchi yilda musulmonlar uchun muqaddas oy – ramazondan oldin farz sifatida joriy qilindi. Shu jumladan, xums hamda jizya soliqlari ham aynan shu davrda vujudga keldi.

Tadqiqotda baytulmol instituti islom davlatchiligi tarixida shunchaki g'azna emas, balki "markazlashgan moliyaviy-ma'muriy boshqaruv instituti" sifatida shakllangani aniqlandi. Nazariy jihatdan ushbu institutning Muhammad payg'ambar (s.a.v.) davridagi "adolatli taqsimot" bosqichidan, Abbosiylar davridagi "shaxsiy va ommaviy g'aznaning ajratilishi" (bayt ul-mol al-muslimin va bayt ul-mol al-xassa) bosqichigacha bo'lgan evolyutsiyasi davlat moliyasining institutsionalizatsiyalashuv jarayoni sifatida tavsiflanadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida xalifa Usmon ibn Affon davrida Baytulmol (byudjet) xarajatlari tasnifi hamda miqyosi o'sgani yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, xalifa Usmon davrida davlat byudjeti uch asosiy tur xarajatlardan iborat edi:

– ijtimoiy yordam va nafaqalar;
– joriy xarajatlar;
– sarmoyaviy xarajatlar.

Shuningdek, Muhammad payg'ambar (s.a.v.) vafotlaridan so'ng huquqning bosh manbasini sharhlashda bo'shliq yuzaga keldi, natijada islom huquqshunosligi norma ijodkorligida yangi ijtihod instituti rivojlana boshladi hamda roshid xalifalar o'z faoliyatida nafaqat Qur'on va sunnatga, balki ba'zi ushbu manbalarda zikr etilmagan masalalarda o'z ra'ylariga ham tayandilar.

Tadqiqotchi tomonidan ilk marta Muhammad payg'ambar (s.a.v.) va to'rt xalifa zamoni islom huquqida moliya institutining vujudga kelishining dastlabki davri sifatida yoki moliyaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning ilk bosqichi sifatida belgilab olindi.

Dissertant tomonidan Umaviylar va Abbosiylar davri bo'lgan islom huquqiy ta'limoti yaratilgan davr islom huquqida moliya instituti rivojlanishining keyingi bosqichi sifatida belgilab olindi.

Umaviylar davrida (661–750) iqtisodiy va moliyaviy yozishmalarni markazlashtirish uchun Devon al-Barid va Devon ar-Raso'il nomli boshqaruv institutlari tashkil etildi, oltin dinor va kumush dirham zarb qilinib, moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy mustaqillik kuchaytirildi.

Umaviylar davridagi huquqqa xos bo'lgan muhim fenomen hukmdorlar qonunlarni sharhlash bilan shug'ullanishni to'xtatishi bo'ldi.

Abbosiylar davrida (750–1258) esa moliyaviy munosabatlarni tartibga solishda huquqshunos va dinshunos olimlarning o'rni ortdi. Xususan, hukmdorlar buyrug'i bilan yozilgan asarlar, traktatlar moliyaviy boshqaruvda dasturulamal bo'lib xizmat qila boshladi. Jumladan, Abu Yusufning "Kitab al-Xaraj" asarida har bir soliq to'lovchini alohida soliqqa tortish zarurligi hamda mulkdan emas, balki mulkdan keladigan daromadni soliqqa tortish lozimligi asoslab berildi. Bu g'oya zamonaviy moliyaviy huquqdagi daromad solig'i konsepsiyasining ilk nazariy ildizidir.

Abbosiylar davrida islom huquqiy ta'limoti shakllandi, islom huquqining manbalari kengaydi, fiqhiy mazhablar doirasida moliyaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyatlari kengaydi, asta-sekin ijtihod eshiklari yopildi. X asr o'rtalaridan boshlab islom huquqshunosligida XIX asrga qadar uning yuridik tabiatiga ta'sir ko'rsatuvchi keskin o'zgarishlar ro'y bermadi.

Movarounnahrlik huquqshunos olimlar, jumladan, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Shamsula'imma Saraxsiy, Abullays Samarqandiylar o'z asarlari orqali islom huquqiy ta'limotining moliyaviy qoidalarini sharhlash, tavsiflash hamda amaliyotda bir qancha misollar bilan qo'llash orqali sohaga beqiyos hissa qo'shdilar. "Hidoya"dagi oldi-sotdi, kafolat, pulni birovga o'tkazish, guvohlik, vakolat, da'vo, ishda pul bilan sheriklik, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg'a, ijara masalalaridagi yondashuvlar, Saraxsiy asari bo'lmish "Mabsut"dagi ribo, salam, murobaha, tavliya, vazia kabi munosabatlarning ochib berilishi, g'arar masalalariga chuqur to'xtalishi, "bitoqatu-l-i'timan" ("ishonch yorlig'i") orqali savdo qilish kabi XI asrda Movarounnahrda amalga oshirilgan moliyaviy munosabatlar asarda tavsiflanishi ushbu manbalarning ahamiyatini va islom huquqiy ta'limoti doirasida moliyaviy munosabatlarni sharhlash, tushuntirib berishdagi o'rnini anglatadi.

Shuningdek, tadqiqotda "Hidoya" asari tahlili asosida zakot to'lash majburiyati bo'yicha "moliyaviy-huquqiy layoqat" tushunchasi aniqlashtirildi. Abu Yusufning zakotni mutlaq (hatto aqli zaiflar uchun ham) majburiyat deb bilishiga qarshi o'laroq, Marg'inoniyning zakotni faqat aqli raso shaxslarga yuklashi islom moliya huquqida subyektning irodaviy-ruhiy holati yuridik majburiyatning asosi ekanligi haqidagi muhim doktrinal xulosani berishi yoritib berildi.

Tadqiqotchi tomonidan aynan XIX asrdan boshlab islom huquqida moliya instituti rivojlanishining uchinchi bosqichi kirib kelgani alohida ta'kidlanadi. Chunki XIX asrdan boshlab hatto nisbatan barqaror musulmon mamlakatlarining kolonial yoki iqtisodiy qaramlikka tushib qolishi ushbu davlatlarning huquq tizimiga ham ta'sir etmay qolmadi. 1840-yilda Usmoniylar imperiyasida g'arb tijorat huquqining tabiatiga monand Tanzimat islohotlari boshlandi. 1869-yilda shariat normalarini o'zida mujassam etgan Majalla fuqarolik kodeksi ishlab chiqildi, ammo ushbu hujjat shariatning tabiiy, o'ziga xos xususiyatiga zid edi, chunki shariat o'z mohiyatiga ko'ra, kodifikatsiya qilinmagan, huquqiy ta'limotlar (doktrinalar), prinsiplar, qadriyatlar va fikrlar to'plami hisoblangan.

Shunga qaramay, tadqiqotchiga ko'ra, aynan kolonial sekulyarizatsiya islom moliya huquqini institutlashgan davlat tizimidan chiqarib, din olimlarini ijtihodga ko'proq erkinlik bilan yondashish imkoniyatiga ega qildi va bu zamonaviy islom moliyasi institutlarining shakllanishiga metodologik zamin yaratdi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Hozirgi zamon islom moliya huquqi"** deb nomlanib, unda bugungi islom moliya huquqining o'ziga xos xususiyatlari, ilg'or xorijiy mamlakatlarning qonunchilik evolyutsiyasi, xalqaro islom moliyasi institutlarining moliyaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishdagi tendensiyalari, shuningdek, O'zbekiston misolida islom huquqi moliya institutining zamonaviy rivojlanish istiqbollari tadqiq etilgan.

Mazkur bob doirasida tadqiqotchi tomonidan bugun islom moliya huquqiga yondashuv islom huquqiy ta'limotining yuridik tabiatidan birmuncha farqli ekanligi A. Saidov, L. Syukiyaynen, R. Bekkin, G. Kerimov, N. Tomau kabi sharq huquqshunos olimlarning qarashlarida ochib berilgan. Jumladan, g'arb olimlari huquqiy tafakkurida islom moliya huquqini mustaqil huquq sohasi sifatida baholashga intilish kuzatiladi. Biroq tadqiqotchi xulosasiga ko'ra, bu yondashuv islom huquqiy ta'limotining yuridik tabiatidan birmuncha farq qiladi. Chunki musulmon fiqhi an'anaviy ravishda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy, diniy va axloqiy jihatdan yagona tamoyillar asosida tartibga soluvchi qoidalar majmuasidir.

Bugungi kunda islom moliyasi amalda bo'lgan davlatlarda uni huquqiy tartibga solishda uch turdagi model, ya'ni monistik, dualistik hamda huquqiy asoslarsiz tegishli qonunchilikka moslashuvchan (integratsion) turlari mavjudligini inobatga olsak, mazkur modellar orasidan dualistik model xalqaro maydonda nisbatan keng tarqalgan va sinalganligi hamda rivojlanayotgan davlatlar moliyaviy tizimida tanlov imkoniyatini yaratayotganligi bilan ham alohida e'tirofga sazovordir. Shu bois O'zbekiston Respublikasida islom moliyasini joriy etishda dualistik model asosida fuqarolik, bank, soliq va qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilikka maxsus islomiy-moliyaviy normalarni inkorporatsiya qilish, islomiy-moliyaviy xizmatlar va mahsulotlar bo'yicha alohida shariat muvofiqligi ekspertizasi institutini joriy etish taklif etiladi.

Dissertant tomonidan tadqiq etilgan hozirgi islom moliya huquqining yana bir o'ziga xosligi sifatida ushbu institut tarixida hali yuz bermagan yangi usul, jamoaviy ijtihod asosida, islom huquqiy ta'limotining umumiy asoslariga zid kelmaydigan yangi qoidalarni ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'lishini yangi huquqiy fenomen sifatida baholash mumkin.

Ushbu bob doirasida islom huquqining zamonaviy olimlari: X.S. Rahmoniy, I.O. Shomiy, T. Mansuriy A.Sh. Juzjoniy, M.A. Qosimov va boshqalarning mulohaza va yondashuvlarini tahlil etgan tadqiqotchining o'rganishlari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy islom moliyaviy institutlari xalqaro standartlar va qoidalarni ishlab chiqishda tarixda birinchi marta islom huquqining umumiy qoidalaridan (fiqhiy qoidalar) hukm manbayi sifatida foydalandilar hamda soha rivoji uchun o'ziga xos yangilik yaratdilar. Oqibatda xalqaro islom moliya standartlarining globallashuvi va universallashuvi ta'minlanmoqda va uni joriy etish yagona markazlashgan huquqiy tizimni barpo etish istiqbollarini kengaytirmoqda.

Tadqiqotchining fikricha, islom moliya huquqining bugungi kunda xalqaro-huquqiy tizimlar ta'sirida standartlashuvi va islomiy moliya munosabatlarining dinamik rivojlanish tendensiyasini inobatga olib, O'zbekistonda islom moliyasining huquqiy asoslarini mustahkamlash, sohaning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish maqsadida rivojlangan xorijiy mamlakatlar (Buyuk Britaniya, Malayziya, Turkiya, Saudiya Arabistoni) tajribasini inobatga olgan holda, yuridik oliy ta'lim muassasalarida islom moliya huquqini alohida fan moduli sifatida o'qitish taklif etiladi.

Dissertant tomonidan bugungi islom moliya huquqi nisbatan standartlashtirilgani (AAOIFI, IFSB qoidalari), jahonda keng tarqalgan huquqiy tizimlarning ta'siri natijasida o'zining ifodalanish shaklida o'zgarishlar sodir bo'lganini inobatga olgan holda, O'zbekistonda islom moliya huquqi va boshqa huquqiy tizimlar tegishli tarmoqlariga oid qiyosiy-huquqiy o'quv adabiyotlarini yaratish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish taklif etiladi.

Tadqiqotda islom moliyasini huquqiy tartibga solish, uni joriy etishning dualistik modelini tanlagan xorijiy mamlakatlar (Malayziya, Bahrayn, Qatar, Qozog'iston va Qirg'iziston) tajribasini inobatga olgan holda, yangi "Islomiy bank faoliyati to'g'risida"gi mukammal qonun hujjatini qabul qilish zarurligi asoslantirilgan.

Yuqoridagi mazmunda qonunning qabul qilinishi asnosida dissertant "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish zarurligi, shuningdek, Fuqarolik kodeksining tegishli moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim ekanligini ta'kidlaydi.

"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning omonat (depozit) haqidagi bandiga qo'shimcha sifatida islomiy bank faoliyatini amalga oshirish maqsadida investitsiyaviy omonatlarga jalb etilgan pul mablag'lari bundan mustasno ekanligi belgilab qo'yilishi kerakligi taklif etiladi.

Tadqiqotchi tomonidan islom moliyasiga oid har qanday qonun hamda qonunosti hujjatlarini qabul qilishda islom moliyasiga oid terminlarni o'zgartirmagan holda foydalanish taklif etiladi. Natijada islom moliyasining muayyan institutlariga oid munosabatlarni noto'g'ri talqin hamda huquqiy me'yorlarni tushunishda noaniqliklar bartaraf etiladi.

XULOSA

Islom huquqida moliya institutining shakllanishi va rivojlanishini davlat va huquq nazariyasi va tarixi fani nuqtayi nazaridan tadqiq etish hamda tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish natijalari quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelishga, shuningdek, qonunchilikni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalarni ilgari surishga xizmat qildi. Xususan:

I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar

1. Islom huquqi manbalarini tahlil etish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, islom moliya tizimi o'ziga xos tamoyillarga asoslanadi. Bu tamoyillar nafaqat diniy-axloqiy mezonlar, balki islom huquqining jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishdagi asosi ham hisoblanadi. E'tiborlisi shuki, ushbu tamoyillar islom huquqi vujudga kelgan ilk davrlardan boshlab turli tarixiy shart-sharoitlar va omillar ta'sirida shakllangan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shu sababli islomiy-moliyaviy tamoyillar va institutlarning shakllanishi hamda rivojlanishini o'rganish, muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

2. Tadqiqotda bir qator soha olimlarining ta'rif va mulohazalarini tahlil qilgan holda, moliya huquqiga quyidagicha ta'rif berildi:

Moliya huquqi – davlatning moliyaviy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi pozitiv xarakterdagi huquqiy normalar yig'indisi bo'lib, u ommaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishi va huquqiy *tartibga solish doirasi ko'proq fiskal maqsadlarga qaratilgani bilan islom moliya huquqidan farqli hisoblanadi.*

3. Tadqiqot ishida islom huquqida moliya institutining rivojlanishi, uning boshqa moliyaviy-huquqiy tizimlar bilan umumiy farqlarini aks ettiruvchi qoidalarini atroflicha tahlil etgan holda, islom moliya huquqining quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi:

"Islom moliya huquqi bu – islom huquqiy tafakkurining tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan, Qur'oni karim, sunnat, ijmo va qiyos kabi shariat manbalariga, shuningdek, ratsional (ijtihod) fikrlash va islom huquqining umumiy tamoyillariga asoslangan, ommaviy-huquqiy va xususiy-huquqiy munosabatlar sintezidan iborat bo'lgan, moliyaviy jarayonlarni tartibga soluvchi mustaqil kompleks institut bo'lib, u iqtisodiy adolat, ijtimoiy barqarorlik va axloqiy tamoyillarga asoslangan fiskal, moliyaviy siyosatni amalga oshirishni maqsad qiladi".

